TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/30.12.2019.Yu.22.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

SAIDAZIMOV YUSUF SODIQ O‘G‘LI

MA’MURIY HUJJATNI O‘ZGARTIRISH, BEKOR QILISH VA HAQIQIY EMAS DEB TOPISHNING HUQUQIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH

12.00.02. – Konstitutsiyaviy huquq. Ma’muriy huquq.
Moliya va bojxona huquqi

yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

UDK: 342.9 (043.5) (575.1)

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Contents of the abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD)

Saidazimov Yusuf Sodiq o‘g‘li
Ma’muriy hujjatni o‘zgartirish, bekor qilish va haqiqiy emas deb topishning huquqiy asoslarini takomillashtirish……………..………..…………………...……..3

Saidazimov Yusuf Sodik ugli
Improvement of the legal basis of amending, canceling and invalidating an administrative act……..…………………………..…………………………...…23

Саидазимов Юсуф Содик угли
Совершенствование правовых основ изменения, отмены и признания недействительным административного акта ……….…………...…………45

E’lon qilingan ilmiy ishlar ro‘yxati
Список опубликованных научных работ
List of published scientific works…………………………………………………...48

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/30.12.2019.Yu.22.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

SAIDAZIMOV YUSUF SODIQ O‘G‘LI

MA’MURIY HUJJATNI O‘ZGARTIRISH, BEKOR QILISH VA HAQIQIY EMAS DEB TOPISHNING HUQUQIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH

12.00.02. – Konstitutsiyaviy huquq. Ma’muriy huquq.
Moliya va bojxona huquqi

Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Yu1417 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tsul.uz) va “ZiyoNET” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Yusupov Sardorbek Baxodirovich** yuridik fanlar doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Narimonov Bekzod Abduvaliyevich** yuridik fanlar doktori, dotsent
	Xojiyev Erkin Tuyg‘unovich yuridik fanlar nomzodi, professor
Yetakchi tashkilot:	**O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.07/30.12.2019.Yu.22.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 12-aprel soat 10:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Sayilgoh ko‘chasi, 35-uy. Tel.: (99871) 233-66-36; faks: (99871) 233-37-48, e-mail: info@tsul.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1357-raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Sayilgoh ko‘chasi, 35-uy. Tel.: (99871) 233-66-36).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 1-aprel kuni tarqatildi.

(2025-yil 1-apreldagi 20-sonli reyestr bayonnomasi).

R.R. Xakimov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, yuridik fanlar doktori, professor

F.B. Maxmudov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

I.R. Bekov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash huzuridagi Ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar doktori, professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda zamonaviy davlat boshqaruvining eng oqilona modellarini rivojlantirish, davlat xizmatlari koʻrsatish tartib-taomillarini optimallashtirish va soddalashtirishni taʼminlaydigan davlat boshqaruvining innovatsion shakllarini joriy etishga alohida eʼtibor berilmoqda. Maʼmuriy-huquqiy faoliyatda toʻliq avtomatlashtirilgan tizimdan tortib raqamli texnologiyalarni qoʻllash mexanizmlarini joriy qilishgacha dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan raqamli elektron hukumat soʻrovi asosida yigirma yildan ortiq vaqt davomida yuritib kelinayotgan tadqiqotlar reytingida hamda Elektron hukumat rivojlanish indeksida (E-Government Development Index, EGDI)[1] Oʻzbekiston Respublikasi 2024-yil dunyoda 63-oʻrinni egallaganligini qayd etish lozim[2]. Shundan kelib chiqqan holda maʼmuriy hujjatlarni qabul qilishda elektron avtomatik tizimga bosqichma-bosqich oʻtish orqali raqamli texnologiyalarni qoʻllash tizimini keng joriy etish zarurati yuzaga chiqmoqda.

Jahonda ommaviy-huquqiy nizolarni hal qilishda ochiqlik va shaffoflikni taʼminlash, nizolashuvchi taraflarning huquqiy maqomini belgilash, respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining qarorlari, harakati (harakatsizligi) ustidan sud nazoratini amalga oshirish masalalari yuzasidan qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda, jumladan, maʼmuriy organ qarorlari, harakati (harakatsizligi) ustidan maʼmuriy tartibda va sud tartibida shikoyat qilish hamda mazkur jarayondagi ishtirokchilarning huquq va majburiyatlarini belgilash, dalillar tasnifini aniqlash, sohaga zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy qilishga muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadigan tadqiqot yoʻnalishi sifatida alohida eʼtibor qaratilmoqda. Bu borada maʼmuriy tartib-taomillar prinsiplarining tatbiq etilishini takomillashtirish, manfaatdor shaxsni tinglash, respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan maʼmuriy tartib-taomillarning barcha ishtirokchilari muayyan holat boʻyicha maʼmuriy-huquqiy tartibga solishni belgilab olishi kabi maʼmuriy tartib-taomillarning huquqiy asoslarini takomillashtirishga oid tadqiqotlar alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Soʻnggi yillarda mamlakatimizda zamonaviy davlat boshqaruvi (public administration) joriy etilishiga, Oʻzbekiston Respublikasida maʼmuriy islohotlar konsepsiyasi hamda Oʻzbekiston Respublikasida maʼmuriy islohotlar oʻtkazish boʻyicha chora-tadbirlar dasturi loyihalarini ishlab chiqish vazifalaridan kelib chiqib davlat boshqaruvida samaradorlikni oshirish, qabul qilinayotgan hujjatlar har tomonlama qonuniy, adolatli, asoslangan boʻlishi lozimligi kabi muhim vazifalar belgilab berilmoqda. Shunga qaramay, mazkur yoʻnalishda bir qator muammolar dolzarbligicha qolmoqda. Jumladan, maʼmuriy hujjatlarni qabul qilish, oʻzgartirish yoki bekor qilishda manfaatdor shaxslar fikri tinglanmasligi, huquqiy va faktik asoslarga yetarlicha eʼtibor berilmasligi, maʼmuriy hujjatni bekor qilish, oʻzgartirish, haqiqiy emas deb topishning aniq tartib-taomili yoʻqligi, manfaatdor shaxsning ishonchi suisteʼmol qilinishi kabi holatlar hamon uchramoqda. Maʼmuriy hujjat yuzasidan

---

[1] https://publicadministration.un.org/egovkb/en-us/Reports/UN-E-Government-Survey-20224

[2] The World Justice Project Rule of Law Index® 2020 // https://worldjusticeproject.org /sites/defaul t/files /documents/ WJP-ROLI-2020-Online_0.pdf

nizolashishda, ma'muriy hujjatni qayta ko'rib chiqishda, manfaatdor shaxslarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlari yetarli ta'minlanmayotgani, ma'muriy hujjatni faqat sud tartibida bekor qilish mexanizmlarining hali-hanuz ishlab chiqilmagani mazkur sohada tadqiqot olib borish zaruratini vujudga keltirmoqda.

Tadqiqot ishi yuqoridagi muammolarni ma'lum darajada bartaraf etishi bilan birga O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi (2018-yil), "Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to'g'risida"gi (2021-yil), "Yer uchastkalarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yish tartib-taomillari to'g'risida"gi (2022-yil) Qonunlari; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida Ma'muriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF–5185-son (2017-yil), "2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF–4947-son (2017-yil), "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF–60-son (2022-yil), "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF–158-son (2023-yil), "O'zbekiston – 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi PF–37-son (2024-yil) Farmonlari hamda sohaga oid boshqa qonun hujjatlarining ijrosi ta'minlanishiga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Ma'muriy hujjatni o'zgartirish, bekor qilish va haqiqiy emas deb topishning huquqiy asoslarini takomillashtirish masalalari huquqshunos olimlar tomonidan muayyan darajada tadqiq etilgan bo'lib, mavjud tahlillar asosan umumiy yondashuvga asoslangan.

O'zbekistonlik huquqshunos olimlardan davlat boshqaruvi, ma'muriy islohotlarning ayrim jihatlari, boshqaruvning huquqiy aktlari ilmiy-nazariy asoslari, ma'muriy hujjatning ayrim jihatlari Axmedshayeva M.A., Alimov X.R., Artikov D.R., Egamberdiyev A.U., Eshimbetov M.U. Islomov Z.M., Nematov J.N., Odilqoriyev X.T., Otaxonov F.H, Ro'zmetov X.I., Saidov A.X., Say.I., Toshkulov J.U., Tulteyev I.T., Yusupov S.B., Yakubov Sh.U., Xakimov R.R., Xusanov O.T., Hojiyev E.T., Xusanova M.A., Xayitov X.X., Xamedov I.A., Xvan L.B., Xakimov G'.T.lar[3] tomonidan tadqiq etilgan. J.N. Nematov tomonidan ma'muriy akt ma'muriy huquqning markaziy instituti sifatidagi o'rni qiyosiy-huquqiy jihatdan o'rganilgan.

Xorijiy mamlakatlarda ma'muriy hujjatni o'zgartirish, bekor qilish va haqiqiy emas deb topish bilan bog'liq ishlar bo'yicha, individual ma'muriy-huquqiy aktlarning ahamiyati va ayrim jihatlari: Caluwe R.De., Fusser K., Hengstschläger J., Kahl V., Maer O., Manssen G., Mauer H., Pudelka Y.,

---

[3] Mazkur olimlarning ilmiy ishlari foydalanilgan adabiyotlar qismida to'liq keltirilgan.

Philipp F., Ruffert M., Syamon R., Sikou Y., Vatari T., Yamada X., Shvarts B., Weber M.[4] kabi olimlar tomonidan o‘rganilgan.

MDH mamlakatlarida Alekseyev S.S., Baxrax D.N., Davidov K.K, Gvozdeva A.A, Kozlov A.A, Lazarev I.M., Maxina S.N., Morozova O.V., Poroxov Y.V., Starilov Y.N., Tixomirov Y.N., Volkov A.M., Yefremov M.O.[5] va boshqa olimlar tomonidan ma’muriy akt, davlat boshqaruvining individual aktlarining ba’zi muammolari o‘rganilgan.

Shunga qaramasdan, ma’muriy hujjatni o‘zgartirish, bekor qilish va haqiqiy emas deb topishning huquqiy asoslarini takomillashtirish masalasi ma’muriy huquq nuqtayi nazaridan, xorijiy davlatlarning ijobiy tajribasini tahlil qilgan holda O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligini takomillashtirish nuqtayi nazaridan tadqiqot ishi sifatida o‘rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Tadqiqot Toshkent davlat yuridik universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida davlat boshqaruvini yanada erkinlashtirishning asosiy yo‘nalishlari” mavzusidagi fundamental loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O‘zbekiston Respublikasida ma’muriy hujjatni o‘zgartirish, bekor qilish va haqiqiy emas deb topishning huquqiy asoslarini tartibga solishning ilmiy-nazariy, amaliy va qonunchilik muammolarini tizimli o‘rganish asosida taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ma’muriy huquqning markaziy instituti hisoblangan “ma’muriy hujjat” tushunchasiga ilmiy asoslantirilgan ta’rif ishlab chiqish, “ma’muriy hujjat” deganda nafaqat yozma shaklda qabul qilingan hujjat tushunilishi, balki ma’muriy organ yoki uning mansabdor shaxslari tomonidan “ma’muriy hujjat” og‘zaki, belgi, signal, yorug‘lik ishoralari orqali ham qabul qilinishi yoki ifodalanishi mumkinligini tahlil qilish;

ma’muriy ish yuritishning asosiy nizo predmetlari bo‘lgan “ma’muriy hujjat” va “xatti-harakat” tushunchasi va ularning bir-biridan farqlovchi belgilarini tahlil qilish;

ma’muriy hujjatning normativ-huquqiy hujjatdan, protsessual hujjatdan va ichki idoraviy hujjatlardan farq qilishi, ma’muriy hujjat qabul qilinishi natijasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ehtimoliy oqibatlarni hamda uning tartibga solish maqsadlariga erishilishini aniqlash va baholashga qaratilgan chora-tadbirlar majmui sifatidagi yuridik tavsifini asoslash;

ma’muriy sud ishlarini yuritishda “Ma’muriy organ” tushunchasi tahlil qilinib qanday holatlarda boshqa shaxslar, tashkilotlar va maxsus tuzilgan komissiyalar “ma’muriy organ” maqomiga ega bo‘lishini tahlil qilish;

qonuniy va noqonuniy ma’muriy hujjatni bekor qilish mexanizmlari bir-biridan farq qilishini tahlil qilish;

[4] Mazkur olimlarning ilmiy ishlari foydalanilgan adabiyotlar qismida to‘liq keltirilgan.
[5] Mazkur olimlarning ilmiy ishlari foydalanilgan adabiyotlar qismida to‘liq keltirilgan.

ma'muriy hujjatni manfaatdor shaxs foydasiga bekor qilish mexanizmi oddiy, manfaatdor shaxs zarariga bekor qilish mexanizmi murakkab ekanligini tahlil qilish;

qonunga zid tarzda qabul qilingan bo'lsa-da, manfaatdor shaxsning aybi bo'lmasa, uning ishonchini himoya qilish shartligi tartib-taomillarini tahlil qilish;

ma'muriy tartib-taomillar prinsiplari, xususan, tinglash jarayoni, manfaatdor shaxsning ishonchini himoya qilish, diskretsion vakolatni qo'llashning qonuniyligi qoidalarini ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etish;

ma'muriy hujjatni o'zgartirish, bekor qilish va haqiqiy emas deb topishning huquqiy asoslarini o'rganish orqali qonunchilikdagi muammolarni aniqlash va qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

O'zbekistonda ma'muriy tartib-taomillar to'g'risidagi qonunchilikni yanada takomillashtirish yo'nalishlari va amaliyotda qo'llash istiqbollarini tahlil qilish, uni amaliyotga tatbiq etishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ayrim muammolarning oldini olish borasida ilmiy asoslantirilgan takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida O'zbekistonda ma'muriy tartib-taomillarning huquqiy asoslarini takomillashtirish bilan bog'liq ijtimoiy-huquqiy munosabatlar, jumladan, ma'muriy hujjatni qabul qilish, o'zgartirish, bekor qilish va haqiqiy emas deb topish bilan bog'liq huquqiy munosabatlar tizimi olingan.

Tadqiqotning predmetini O'zbekistonda ma'muriy hujjatni o'zgartirish bekor qilish va haqiqiy emas deb topishning tashkiliy-huquqiy asoslarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar, huquqni qo'llash amaliyoti, xorijiy mamlakatlar qonunchiligi va amaliyoti hamda ma'muriy huquqda mavjud bo'lgan konseptual yondashuvlar, ilmiy-nazariy qarashlar va huquqiy kategoriyalar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot olib borishda tarixiy, tizimli, mantiqiy (analiz, sintez), qiyosiy-huquqiy, statistik, induksiya va deduksiya, ijtimoiy so'rovlar o'tkazish kabi usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

yer uchastkalarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yishga asos bo'ladigan maqsadlar qonunda aniq belgilanishi, bunda yer uchastkalarining har qanday boshqa maqsadlarda olib qo'yilishini jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yish sifatida talqin etish taqiqlanishi lozimligi asoslantirib berilgan;

yer uchastkalarini olib qo'yish bo'yicha tashabbusni rad etish asoslari sifatida yer uchastkasini olib qo'yish bo'yicha tashabbus ushbu qonunda aniq belgilangan talablarga muvofiq bo'lmaganda hamda xalq deputatlari mahalliy kengashlari huzuridagi kuzatuv kengashining yozma roziligi mavjud bo'lmagan hollarni qonunchilikda aks ettirish lozimligi asoslantirilgan;

yer uchastkalarini jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yish va ko'chmas mulk obyektlarini buzish to'g'risidagi qarorlar qonunga xilof deb topilgan taqdirda jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan zarar o'rni, birinchi navbatda, markazlashtirilgan jamg'armalarning mablag'lari hisobidan qoplanib, keyinchalik ushbu mablag'lar aybdor shaxslardan regress tartibida undirilishi kerakligi asoslab berilgan;

franshizing shartnomasini davlat ro'yxatidan o'tkazishni rad etishda kompleks mutlaq huquqlarning muvofiq bo'lmagan huquq egalari (huquqdan foydalanuvchilar) tomonidan murojaat qilingani asos bo'lishi lozimligi asoslantirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ma'muriy hujjatning haqiqiyligi yoki haqiqiy emasligini keltirib chiqaradigan holatlar, ma'muriy hujjatni bekor qilish va o'zgartirish talablariga doir ma'muriy tartib-taomillar qoidalarini takomillashtirishga oid takliflar ishlab chiqilgan;

ma'muriy hujjatni o'zgartirish, bekor qilish va haqiqiy emas deb topish tartibini takomillashtirish yuzasidan normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirishga oid takliflar ishlab chiqilgan;

"ma'muriy hujjat" termini "ma'muriy akt" sifatida qo'llanishi asoslab berilgan hamda qonunchilikka tegishli takliflar tayyorlangan;

"ma'muriy akt" tushunchasiga mualliflik ta'rifi ishlab chiqilgan;

"ma'muriy organ" tushunchasiga mualliflik ta'rifi ishlab chiqilgan hamda qonunchilikka tegishli taklif ishlab chiqilgan;

ma'muriy aktni o'zgartirish, bekor qilish va haqiqiy emas deb topishda ma'muriy aktni turlarga ajratish zarurati asoslab berilgan;

O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risidagi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiya natijalari milliy qonunchilik hujjatlari, rivojlangan davlatlar tajribasi va huquqni qo'llash amaliyoti tadqiq qilinib, respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari xodimlari va keng jamoatchilik orasida ijtimoiy so'rovlar o'tkazilib, statistik ma'lumotlarni tahlil qilish natijalari umumlashtirilib, tegishli hujjatlar orqali rasmiylashtirildi hamda olingan xulosa, taklif va tavsiyalar aprobatsiyadan o'tkazilib, ularning natijalari yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e'lon qilindi, vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlandi va amaliyotga tatbiq qilindi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati undagi ilmiy-nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalardan kelgusi ilmiy faoliyatda, qonun ijodkorligida, qonunni qo'llash amaliyotida, soliq qonunchiligi normalarini sharhlashda, milliy qonunchilikni takomillashtirish hamda Ma'muriy huquq, Moliya huquqi va Biznes huquqi fanlarini ilmiy-nazariy jihatdan boyitishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalaridan yangi ilmiy tadqiqotlar olib borishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati qonun ijodkorligi faoliyatida, xususan, normativ-huquqiy hujjatlar tayyorlash hamda ularga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish jarayonida, qonunni qo'llash amaliyotini takomillashtirishda hamda oliy yuridik ta'lim muassasalarida Ma'muriy huquq, Soliq huquqi, Moliya huquqi va Davlat xizmati fanlarini o'qitishda xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. "Ma'muriy hujjatni o'zgartirish, bekor qilish va haqiqiy emas deb topishning huquqiy asoslarini takomillashtirish" mavzusidagi tadqiqot bo'yicha olingan ilmiy natijalardan quyidagilarda foydalanilgan:

yer uchastkalarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yishga asos bo'ladigan maqsadlar qonunchilikda aniq belgilanishi, bunda yer uchastkalarining har qanday boshqa maqsadlarda olib qo'yilishini jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yish sifatida talqin etish taqiqlanishi lozimligi haqidagi

taklifdan O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 29-iyundagi “Yer uchastkalarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo‘yish tartib-taomillari to‘g‘risida”gi O‘RQ–781-son Qonunining 4-moddasi ikkinchi qismini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2024-yil 10-maydagi 3/08-74-son dalolatnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi yer uchastkalarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo‘yish to‘g‘risidagi ma’muriy hujjatlarni qabul qilishning mezonlarini aniqlashga xizmat qilgan;

yer uchastkalarini olib qo‘yish bo‘yicha tashabbusni rad etish asoslari sifatida yer uchastkasini olib qo‘yish bo‘yicha tashabbus ushbu qonunda aniq belgilangan talablarga muvofiq bo‘lmaganda hamda xalq deputatlari mahalliy kengashlari huzuridagi kuzatuv kengashining yozma roziligi mavjud bo‘lmagan hollarni qonunchilikda aks ettirish haqidagi taklifdan O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 29-iyundagi “Yer uchastkalarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo‘yish tartib-taomillari to‘g‘risida”gi O‘RQ–781-son Qonunining 18-moddasi birinchi qismi birinchi va oltinchi xatboshilarini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2024-yil 10-maydagi 3/08-74-son dalolatnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi ma’muriy hujjatni qabul qilish va bekor qilishda tinglash va manfaatdor shaxsni xabardor qilish hamda ishonchni himoya qilish prinsiplarini ta’minlashga xizmat qilgan;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesining, mahalliy Kengashning yer uchastkalarini jamoat ehtiyojlari uchun olib qo‘yish va ko‘chmas mulk obyektlarini buzish to‘g‘risidagi qarorlari qonunga xilof deb topilgan taqdirda jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan zararlarning o‘rni, birinchi navbatda, markazlashtirilgan jamg‘armalarning mablag‘lari hisobidan qoplanib, keyinchalik ushbu mablag‘lar aybdor shaxslardan regress tartibida undirilishi kerakligi haqidagi taklifdan O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 29-iyundagi “Yer uchastkalarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo‘yish tartib-taomillari to‘g‘risida”gi O‘RQ–781-son Qonunining 38-moddasini shakllantirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2024-yil 10-maydagi 3/08-74-son dalolatnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi ma’muriy hujjatni qabul qilish, bekor qilish va haqiqiy emas deb topishda manfaatdor shaxsning ishonchini himoya qilishni ta’minlashga xizmat qilgan;

franshizing shartnomasini davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni rad etishda kompleks mutlaq huquqlarning muvofiq bo‘lmagan huquq egalari (huquqdan foydalanuvchilar) tomonidan murojaat qilingani asos bo‘lishi lozimligiga oid taklifdan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 24-iyundagi 346-son qarori bilan tasdiqlangan Kompleks tadbirkorlik litsenziyasi (franshizing) shartnomalarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish bo‘yicha davlat xizmatini ko‘rsatishning Ma’muriy reglamentining 15-bandi kichik xatboshisini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Yuridik ta’minlash boshqarmasining 2022-yil 18-dekabrdagi 12/21-100-son

dalolatnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi ma'muriy tartib-taomillar prinsiplariga muvofiq qonunchilikning qo'llanishi, ma'muriy organlar tomonidan qaror qabul qilishda tartib-taomillarga rioya qilinishini kuchaytirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta ilmiy anjumanda, jumladan, 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot natijasi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish, jumladan, 2 ta monografiya, dissertatsiyaning asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan OAK nashrlarida 10 ta ilmiy maqola (4 ta xorijiy nashrlarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Ilmiy tadqiqot ishi kirish, 9 paragrafni o'z ichiga olgan uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilova qismlaridan iborat bo'lib, uning hajmi 155 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi) qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi, mavzu bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, muammoning o'rganilganlik darajasi, mavzuning dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan aloqasi, uning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti, usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi, tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **"Ma'muriy hujjatning nazariy-huquqiy asoslari**" deb nomlanib, ma'muriy hujjat tushunchasi, belgilari, ma'muriy hujjat turlari va o'ziga xos xususiyatlari, ma'muriy hujjatning shakli va kuchga kirishi kabi masalalar tahlil qilingan.

Tadqiqotchi ma'muriy hujjat tushunchasini tahlil qilishda ko'plab olimlarning (Axmedshayeva M., Artikov D., Alekseyev S., Baxrax D., Egamberdiyev A., Flipp F., Hakimov R., Hamedov I., A.Li., Long M., Martini M., Mayer O., Nematov J., Odilqoriyev X., Say I., Tixomirov Y., Vasilev R., Vlasov V., Volkov M., Xvan L., Xojiyev E., Xakimov G'.) fikrlaridan foydalanib, ular bilan munozaraga kirishgan.

Dissertant tomonidan ma'muriy ish yuritish hamda ma'muriy huquqning markaziy instituti hisoblangan "ma'muriy hujjat" tushunchasiga ilmiy asoslantirilgan ta'rif ishlab chiqilib, "ma'muriy hujjat" deganda nafaqat yozma shaklda qabul qilingan hujjat tushunilishi, balki ma'muriy organ yoki uning mansabdor shaxslari tomonidan "ma'muriy hujjat" og'zaki, belgi, signal, yorug'lik ishoralari orqali ham qabul qilinishi yoki ifodalanishi mumkinligi asoslantirilgan. Shundan kelib chiqib qonunchilikda berilgan "ma'muriy hujjat" shakliga og'zaki, belgili, imo-ishora, signallar, yorug'lik ishoralari orqali ham qabul qilinishi mumkinligi asoslantirilgan.

Dissertant tomonidan ma’muriy hujjat belgilari tahlil qilinib, ma’muriy hujjat tushunchasiga quyidagi mualliflik ta’rifi berilgan:

“Ma’muriy akt – ma’muriy organning ommaviy huquqiy munosabatlarini yuzaga keltirishga, o‘zgartirishga yoki tugatishga qaratilgan hamda ayrim jismoniy yoki yuridik shaxslar uchun, yoxud individual belgilariga ko‘ra ajratiladigan shaxslar guruhi uchun, muayyan huquqiy oqibatlar keltirib chiqaruvchi tashqi yo‘naltirilgan har qanday hokimiyat ta’sir chorasi”.

Ma’muriy ish yuritishning asosiy nizo predmetlari bo‘lgan “ma’muriy hujjat” va “xatti-harakat” tushunchasi va ularning bir-biridan farqlovchi belgilari asoslab berilgan.

Ma’muriy sud ishlarini yuritishda “Ma’muriy organ” tushunchasi tahlil qilinib, qanday holatlarda boshqa shaxslar, tashkilotlar va maxsus tuzilgan komissiyalar “ma’muriy organ” maqomiga ega bo‘lishi asoslantirilgan.

Tadqiqotchi tomonidan Ma’muriy huquq fani bo‘yicha o‘quv adabiyotlarida ma’muriy hujjatlarni o‘rganish ma’muriy qonunchilik bilan bog‘lab tahlil qilish maqsadga muvofiqligi asoslantirib berilgan. Ma’muriy hujjat tushunchasi Germaniya, AQSh, Fransiya va Yaponiyadagi ma’muriy qonunchilik asosida o‘rganilib, tahlil qilingan. Jumladan, Germaniyada ma’muriy hujjatlarga o‘xshash bo‘lgan “Verwaltungsakt” (ma’muriy akt), Fransiyada “la decision executoire” mavjud bo‘lib, qonunchilikda ma’muriy huquqning markaziy elementi hisoblanadi.

Ma’muriy hujjatning normativ-huquqiy hujjatlardan, idoraviy normativ-hujjatlardan, protsessual hujjat va ma’muriy harakatlardan farqli jihatlari tahlil qilinib, uning o‘ziga xos xususiyatlari ochib berilgan.

Dissertant tomonidan ma’muriy hujjatning turlari va o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘plab olimlar (Brakoni C., Erbgut V., Fusser K., Hengstschläger J., Kahl V., Mayer O., Manssen G., Mauer H., Nematov J., Pudelka Y., Philipp F., Ruffert M., Sikou Y., Xaurio M., Yamada X., Shvarts B., Weber M.) fikrlari asosida tahlil qilinib, milliy qonunchilik asosida yoritib berilgan hamda qonunchilikdagi ma’muriy hujjat termini o‘zida belgilangan xususiyatlarni to‘liq ochib bera olmasligi tahlil qilinib, ma’muriy hujjat huquqiy toifa o‘laroq ma’muriy akt sifatida talqin qilinishi lozimligi asoslab berilgan.

Amalga oshirilgan tahlillar natijasida tadqiqotchi tomonidan ma’muriy hujjat ustidan nizolashishda ularning turlari muhimligini hisobga olgan holda qonunchilikka “oraliq ma’muriy akt”, “qulay ma’muriy akt”, “noqulay (og‘ir) ma’muriy akt”, “qonuniy ma’muriy akt”, “noqonuniy ma’muriy akt” terminlarini kiritishni taklif etgan.

Ma’muriy hujjatning kuchga kirishida adresatni xabardor qilish muhim ahamiyat kasb etishi asoslantirilib, xabardor qilish tartibini takomillashtirish, ma’muriy aktni “ommaviy e’lon qilish” tartib-taomillarini qonunchilikka kiritishni taklif etgan.

Dissertant tomonidan ma’muriy hujjat va ma’muriy harakat bir-biridan farq qilishi lozimligi tahlil qilinib, ma’muriy akt tegishli vakolatli ma’muriy organlar, ularning mansabdor shaxslari tomonidan ma’muriy-huquqiy munosabatlarning boshqa subyektlariga nisbatan ma’lum qonuniy ahamiyatga ega bo‘lgan (ma’muriy-huquqiy) harakatlarni sodir etishlari uchun faktik va huquqiy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkinligi asoslab berilgan. Ma’muriy harakatlar qabul

qilingan, ma'muriy aktning haqiqiyligini, ushbu aktda mavjud bo'lgan vakolatli qarorning ijrosini ta'minlash maqsadida amalga oshirilishi tahlil qilingan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **"Ma'muriy hujjatni o'zgartirish, bekor qilish va yuridik kuchini tugatish tartib-taomillari"** deb nomlanib, ma'muriy hujjatni o'zgartirish, bekor qilish va yuridik kuchini tugatish tushunchasi va turlari, ma'muriy hujjatlarning noqonuniyligi asoslari, ma'muriy hujjatning amal qilishini huquqiy tugatish usullari va tartib-taomillari tahlil qilinib, milliy qonunchilikni takomillashtirish borasida takliflar ilgari surilgan.

Ma'muriy hujjatni o'zgartirish, bekor qilish, huquqiy kuchini yo'qotishi tartib-taomillari, ma'muriy tartibda shikoyat qilish va ma'muriy hujjatni bekor qilish borasida turli munozarali fikrlar mavjud bo'lib, MDH, Yevropa va O'rta Osiyo davlatlari (misol uchun, Avstriya, AQSh, Fransiya, Germaniya, Gruziya, Litva, Ozarbayjon, Qirg'iziston, Rossiya, Tojikiston, Turkmaniston)ning ma'muriy tartib-taomillar to'g'risidagi qonunlarida ushbu masalalar ham ma'muriy tartib-taomillar to'g'risidagi qonunlarda tartibga solinganini ko'rish mumkin. Huquqshunos olimlarning ilmiy qarashlari hamda rivojlangan xorijiy davlatlarning tartib-taomillar sohasidagi qonun hujjatlarini tahlil qilish natijasida "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonunning 59-moddasi ma'muriy hujjatni o'zgartirishning aniq konseptual qoidalarini to'liq yoritib bera olmasligi asoslab berilgan.

Dissertant tomonidan ma'muriy hujjatni o'zgartirishning huquqiy oqibatlari tahlil qilinib, ma'muriy hujjatning mazmunan o'zgarishiga olib keladigan o'zgartirish hamda ma'muriy hujjat mazmuniga ta'sir qilmaydigan tarzda o'zgartirishga ajratib o'rganish lozimligi taklif etilgan. Dissertantning fikricha, ma'muriy hujjatlarni o'zgartirish mexanizmlarini to'g'ri qo'llash, noqonuniy ma'muriy hujjatlarni qabul qilishning oldini olish bilan birga noqonuniy ma'muriy hujjatni qonunchilikka muvofiqlashtirish imkonini ham beradi.

Dissertant ma'muriy hujjatni o'zgartirish, bekor qilish va yuridik kuchini tugatish tartib-taomillarini tahlil qilishda Avstriya, AQSh, Fransiya, Germaniya, Gruziya, Rossiya, Ozarbayjon va Yaponiya tajribasi asosida ma'muriy hujjatning qonuniyligini tekshirishda, manfaatdor shaxsning ishonchini himoya qilish tartib-taomillari yoritib bergan. Shuningdek, ma'muriy hujjatni o'zgartirish va bekor qilishning o'ziga xos xususiyatlari yoritib bergan. Ma'muriy hujjatni bekor qilish tartib-taomillari, ma'muriy hujjatni amaliyotda yuridik jihatdan tugatishning usullari va yuridik oqibatlari tahlil qilingan. O'z navbatida, xorijiy mamlakatlar ma'muriy qonunchiligida ma'muriy hujjat qonuniyligini tekshirishda Konstitutsiyaning prinsiplari to'g'ridan to'g'ri qo'llanishi tahlil qilingan. Tahlillar natijasidan kelib chiqib, "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonunning 59-moddasiga o'zgartirish kiritish bo'yicha taklif ishlab chiqilgan.

Ma'muriy organlar va ular mansabdor shaxslarining qarorlari, harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat qilish to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqishda ma'muriy hujjatning qonuniyligini tekshirish doirasida sud amaliyotini takomillashtirish bo'yicha bir qator takliflar ilgari surilgan. Jumladan, ma'muriy organlar va ular mansabdor shaxslarining qarorlari, harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat qilish to'g'risidagi ishlarni ma'muriy sudlar tomonidan ko'rib chiqish tarkibida ma'muriy hujjatni qo'llamaslik huquqidan foydalanishi mumkin

emasligi taklif etilgan. Mazkur taklif Avstriya va Germaniya ma'muriy sud ish yurituvi qonunchiligi asosida asoslantirib berilgan.

Tadqiqotchi tomonidan milliy qonunchiligimiz va huquqni qo'llash amaliyotidan kelib chiqqan holda, ma'muriy organ va sud tomonidan ma'muriy hujjatning qonuniyligini tekshirishning o'ziga xos xususiyatlari va turlari tahlil qilingan. Jumladan, sud tomonidan ma'muriy hujjatning qonuniyligini ko'rib chiqish modelini, obyektiv va subyektiv turlarga ajratish kerakligi asoslab berilgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi "**Ma'muriy hujjatni o'zgartirish, bekor qilish va haqiqiy emas deb topishning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish masalalari"** deb nomlanib, ma'muriy hujjatni o'zgartirish va bekor qilish tartib-taomillarini takomillashtirish, ma'muriy hujjatni sud tomonidan haqiqiy emas deb topishning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish, ma'muriy hujjatni o'zgartirish, bekor qilish va haqiqiy emas deb topishni amaliyotda qo'llashning huquqiy masalalarini takomillashtirishga bag'ishlangan.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, AQSh, Avstriya, Germaniya, Gruziya davlatlarida ma'muriy tartib-taomillarning nazariy-huquqiy asoslari keng yoritilgan. Tadqiqot predmetidan kelib chiqib, Avstriya, Germaniya, Gruziya va Yaponiya davlatlari qonunchiligining nisbatan batafsil tartibga solingan jihati sifatida ma'muriy hujjatni bekor qilish va haqiqiy emas deb topishda ma'muriy tartib-taomillar prinsiplari, tinglash jarayoni, mutanosiblik, manfaatdor shaxsning ustunligi, mazmunan qamrab olish va ma'muriy hujjatni qabul qilishning huquqiy tavsifiga doir normativ-huquqiy hujjatlar va ilmiy qarashlar tahlil qilingan. Fransiya qonunchiligidagi ex tunc va ex nunc prinsipining mazmun-mohiyati, Avstriya, Gruziya qonunchiligidagi tinglash jarayoni hamda Germaniya qonunchiligidagi ma'muriy hujjatni qabul qilish, bekor qilish va haqiqiy emasligini huquqiy tavsiflashga oid ijobiy tajriba O'zbekiston qonun hujjatlarini takomillashtirishda foydalanish nuqtayi nazaridan tahlil qilindi.

Mazkur bob doirasida ma'muriy hujjatni sud tomonidan haqiqiy emas deb topishning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirishda (Artikov D., Barczak T., Bachsho I., Davidov K., Eisenberg E., Haurand G., Hatje A., Hamedov I., Hartley T., Lewalle R., Maurer H., Nematov J., Tixomirov Y., Xakimov G'., Christian D.)ning va Germaniya, Fransiya, Rossiya davlatlari tajribasi tahlil qilinib, qonuniylikni tekshirishning shakliy, haqiqiy (mazmun-mohiyati yuzasidan) va ma'muriy ixtiyoriylik (diskretsion vakolat)ni qo'llash qonuniyligi kabi shartlarga ajratish lozimligi asoslab berilgan. Germaniyaning "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi qonuni Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda yuzaga kelgan ma'muriy organlar faoliyatini iloji boricha batafsil tartibga solish zaruratidan kelib chiqib yaratilgan. Shuning uchun ham ma'muriy tartib-taomillarning asosiy qoidalari, jumladan, ma'muriy hujjatni qabul qilish va uning haqiqiyligiga oid qoidalar qonunda to'liq tartibga solingan.

Ma'muriy ish yuritishda va ma'muriy sud ishlarini yuritishda "ma'muriy hujjat"ni "bekor qilish" va "haqiqiy emas deb topish" bir-biridan farq qilishi tahlil qilingan. Bu ikki tushunchaning huquqiy oqibatlari turlicha bo'lishi, "ma'muriy hujjat"ni "bekor qilish"ning tasnifi va oqibatlari asoslantirilgan.

Dissertant tomonidan ma'muriy hujjat yuzasidan nizolashish to'g'risidagi ishning xususiyatidan kelib chiqib, sud amaliyotini takomillashtirish bo'yicha taklif berilgan. Jumladan, sudlar tomonidan subyektiv modeldan keng holda ishning ko'rib chiqilishi

maqsadga muvofiq sanaladi. Bu modelda sud ma’muriy organdan o‘z ish yurituvida mavjud bo‘lgan ma’muriy ishning samarali hal etilishini ta’minlash maqsadida quyidagilarni talab qilib olishi shart:

- ma’muriy hujjatni qabul qilgan organning mazkur hujjat yuzasidan yuridik xizmat bo‘limining xulosasi;
- ma’muriy hujjatni qabul qilgan organning hujjatni qabul qilishning maqsadga muvofiqligini asoslashdan iborat bo‘lgan tushuntirish xati;
- ma’muriy hujjatni qabul qilgan organning ma’muriy hujjatning qabul qilinganligi borasidagi xabarnomaning adresatga yetkazilganligi;
- agar hujjat kollegial organ tomonidan qabul qilingan bo‘lsa, ma’muriy hujjatni qabul qilgan kollegial organ yig‘ilishining bayonnomasi;
- ekspertlarning xulosalari;
- mutaxassislarning maslahatlari (tushuntirishlari);
- guvohlarning ko‘rsatuvlari;
- ishda ishtirok etuvchi shaxslarning tushuntirishlari.

Shu bilan birga, tadqiqotchi tomonidan Ma’muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeksning 23-bobini “Ma’muriy organlarning, ular mansabdor shaxslarining ma’muriy aktlari, harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat qilish to‘g‘risidagi ishlarni yuritish” deb o‘zgartirish bo‘yicha taklif ishlab chiqilgan.

Tadqiqotchi tomonidan ma’muriy hujjatni sud tomonidan bekor qilish mexanizmlarini ishlab chiqish yuzasidan ilmiy tahlillar keltirilgan bo‘lib, Ma’muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeksni “Ma’muriy organlarning ma’muriy aktlarini bekor qilish to‘g‘risidagi ishlarni yuritish” deb nomlanuvchi 23^1-bob bilan to‘ldirish taklifi berilgan.

Dissertant ma’muriy hujjatni o‘zgartirish, bekor qilish va haqiqiy emas deb topishning huquqiy asoslarini takomillashtirish masalalarini tahlil qilgan holda sohaga oid ilmiy tadqiqot ishlarini rivojlantirish, o‘quv jarayoni va qonunchilik asoslarini takomillashtirish masalalarini ham tahlil qilgan.

Tadqiqot ishi doirasida o‘tkazilgan so‘rovnoma natijasiga ko‘ra, “Siz ma’muriy hujjatni o‘zgartirish, bekor qilish va haqiqiy emas deb topishda ishonchingiz himoya qilinishi kerakligidan xabardormisiz?” degan savolga so‘rovnomada qatnashgan respondentlarning qariyb 70 %i “yo‘q” deb javob bergani sababli fuqarolar o‘rtasida mazkur tartibotni keng tushuntirish uchun respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari bilan qonunchilikni qo‘llash yuzasidan seminarlar, bukletlar, videoroliklar qilish va targ‘ibot ishlarini olib borish muhim ekanligi asoslantirilgan.

Ma’muriy hujjatni o‘zgartirish, bekor qilish va haqiqiy emas deb topishga oid qonunchilikni takomillashtirish istiqbollari sifatida “O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonuniga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi hamda “O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeksiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonun loyihalarini ishlab chiqish, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi va Adliya vazirligi hamkorligini takomillashtirish, ma’muriy organlar va sudyalar uchun ma’muriy hujjatlarni o‘zgartirish, bekor qilish va haqiqiy emas deb topish to‘g‘risidagi ishlarning moddiy va protsessual xususiyatlarini o‘rganishga qaratilgan maxsus kurs tashkil etish bo‘yicha takliflar ilgari surilgan.

XULOSA

Amalga oshirilgan tadqiqot natijasida quyidagi ilmiy-nazariy xulosalar, qonun hujjatlarini takomillashtirishga doir takliflar va huquqni qo‘llash amaliyotini rivojlantirishga qaratilgan tavsiyalar ilgari surildi:

I.Ilmiy-nazariy xulosalar:

1. “Ma’muriy hujjat” va “ma’muriy akt” tushunchalari farqi yoritilib, “ma’muriy akt” atamasidan foydalanish tavsiya etildi. Jumladan, “ma’muriy akt” nafaqat yozma shaklda, balki og‘zaki, belgilar, ishoralar orqali va elektron shaklda ham bo‘lishi, ifodalanishi mumkinligi asoslantirildi.

2. “Ma’muriy akt ma’muriy organning ommaviy huquqiy munosabatlarni yuzaga keltirishga, o‘zgartirishga yoki tugatishga qaratilgan hamda ayrim jismoniy yoki yuridik shaxslar uchun yoxud individual belgilariga ko‘ra ajratiladigan shaxslar guruhi uchun, muayyan huquqiy oqibatlar keltirib chiqaruvchi tashqi yo‘naltirilgan har qanday hokimiyat ta’sir chorasi”.

3. Oraliq ma’muriy akt — qoida tariqasida, ma’muriy-huquqiy faoliyat doirasida, ya’ni ma’muriy organlar tomonida o‘z yurisdiksiyasidagi alohida huquqiy ishlarni izchil, bosqichma-bosqich hal etish jarayonida qabul qilinadigan ma’muriy akt.

4. Ma’muriy aktni haqiqiy emas deb topish bilan birga uni bekor qilish talabining ham ma’muriy sud sudloviga taalluqli ekanligi asoslantirildi.

5. Ma’muriy harakat ma’muriy-huquqiy faoliyatning mustaqil huquqiy shaklidir. Ma’muriy harakat, garchi unda buyruq bo‘lmasa ham, manfaatdor tomonlar uchun qonuniy ahamiyatga ega oqibatlarga olib keladi. Shuning uchun ma’muriy shikoyat predmetida unga alohida o‘rin beriladi. Biroq bu yerda “Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonunning joriy nashri konseptual noaniqlikka imkon beradi. Gap shundaki, ma’muriy hujjatni qabul qilishni rad etish ma’muriy harakat emas, balki ma’muriy hujjatdir, chunki u noqulay xususiyatga ega. Ma’muriy hujjatni o‘z vaqtida qabul qilmaslikni ham noqulay ma’muriy hujjat deb hisoblash to‘g‘riroqdir. Ma’muriy aktning o‘z-o‘zidan haqiqiy emasligini tasdiqlash ham yoki ma’muriy yoxud boshqa vakolatli organ tomonidan uning haqiqiy emas deb tan olinishi ma’muriy harakat hisoblanadi.

6. Qonuniy chiqarilgan ma’muriy akt yo‘naltirilgan shaxs (adresat)ga yetkazilib, qonuniy kuchga kirganidan so‘ng qandaydir sabab va asoslarga ko‘ra bekor qilinishi qonuniy ma’muriy hujjatni bekor qilish deb nomlanishi, huquqqa zid ma’muriy hujjat shaxsga yetkazilgan va qonuniy kuchga kirganidan so‘ng uni noqonuniyligi sababidan bekor qilish noqonuniy ma’muriy hujjatni bekor qilish deb nomlanishi asoslantirib berildi.

7. Noqonuniy ma’muriy aktni bekor qilishda manfaatdor shaxsning aybi bo‘lmasa ma’muriy hujjatni bekor qilish oqibatida manfaatdor shaxsning ma’muriy hujjatga bo‘lgan qonuniy ishonchi asosida unga ma’lum bir zarar kelib chiqqan hollarda ma’muriy organ mutanosiblik va ishonchning himoya qilinishi prinsiplari asosida: a) zararni qoplab berishi yoki b) ma’muriy hujjatni bekor qilish natijasida manfaatdor shaxs ko‘radigan zarar jamiyat manfaatlariga yetkaziladigan zarardan

oshib ketgan taqdirda jamiyat manfaatlariga tahdid solayotgan hollardan tashqari, uning ishonchini himoya qilishi mumkinligi asoslantirib berildi.

8. Ma’muriy aktning noqonuniyligi manfaatdor shaxsning aybi bilan yuzaga kelgan hollarda uning ishonchini himoya qilish talab etilmasligi va ma’muriy hujjat ma’muriy organ tomonidan bekor qilinishi mumkinligi asoslantirildi.

9. Ma’muriy akt qonuniy deb hisoblanishi uchun rasmiy huquqiy (protsessual huquqiy) va moddiy-huquqiy talablarga javob berishi lozimligi asoslantirildi.

10. Ma’muriy organ xizmat burchiga ko‘ra qonun talabidan kelib chiqib yoki o‘zi qabul qilgan ma’muriy aktning qonuniy emasligi aniqlanganda uni bekor qilishi (o‘zgartirishi) shart, bundan ishonchni himoya qilish to‘sqinlik qilgan holatlar yoki tegishli vakolati bo‘lmagan holatlar mustasno.

II. Normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalar:

11. O‘zbekiston Respublikasining “Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonuni 4-moddasi birinchi qismi to‘rtinchi xatboshini quyidagi tahrirda bayon etish taklif etiladi:

“ma’muriy organlar — ma’muriy-huquqiy faoliyat sohasida ma’muriy boshqaruv vakolati berilgan organlar, shu jumladan, respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, shuningdek, ushbu faoliyatni amalga oshirishga vakolatli bo‘lgan boshqa shaxslar, tashkilotlar va maxsus tuzilgan komissiyalar”.

12. O‘zbekiston Respublikasining “Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonuni 4-moddasi birinchi qismi yettinchi xatboshisini quyidagi tahrirda bayon etish taklif etiladi:

